



# PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

2(10)  
—  
2024





**ISSN 2181-3787**  
**E-ISSN 2181-3795**

**“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”**  
**xalqaro ilmiy-metodik jurnal**

**«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»**  
**международный научно-методический журнал**

**“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”**  
**international scientific-methodical journal**

**№2(10) 2024**

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 - tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

## MUNDARIJA

**DOLZARB MAVZU .....** ..... 7

**Soyib Saidovich Raupov.** O'qituvchilar sha'ni va qadr-qimmatining huquqiy kafolati ..... 7

**07.00.00 - TARIX .....** ..... 12

**Haitov Jahongir Shodmonovich, Aslonov Axmadjon Gani o'g'li.** O'zbekiston Mustaqilligining Dastlabki Yillarida MDH davlatlari bilan hamkorlik aloqalari tarixidan ..... 12  
**Mubinov Muhammadali Akobirovich.** The first studies of the history of Central Asian khanates by English-speaking authors ..... 16  
**Abdullayeva Dilfuza Abdujalilovna.** Buxoro hukmdorlari yozgi saroyining ta'mirlanish tarixi .... 20  
Erkinova Nilufar Mirshod qizi. Buyuk ipak yo'lida so'g'dliklar faoliyati tarixiga doir masalalar.... 24

**13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI.....** ..... 28

**Sobirova Maxbuba Yusupdjanovna.** Qadriyat – insonni rag'batlantiruvchi kuch ..... 28  
**N.R.Ashurov, Raxmonova Mavluda Suvon qizi.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy asoslari..... 32  
**Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich.** "Axloq" va "xulq" (axloqiylik) kategoriyalari o'rtaсидаги munosabat..... 36  
**Dilnoz Salimovna Ro'ziyeva.** Tibbiyot muhandisligi yo'nalishida ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi..... 40  
**Sayfullayeva Gulhayo Ixtiyor qizi, Malikova Muhabbat Boyto'ra qizi.** Kredit-modul tizimining tamoyillari va vazifalari..... 45  
**Шоумаров Файрат Бахромович, Қодиров Умарали Дўстқобилович.** Milliy gvardiya tizimida psixologik xizmatning ayrim jihatlari ..... 49  
**Shoumarov G'ayrat Bahromovich, Qodirov Umarali Do'stqobilovich.** Milliy gvardiya tizimida psixologik xizmatning ayrim jihatlari ..... 53  
**Saloxitdinova Navro'za Murodulla qizi.** "Tabiiy fanlar" darslarida steam ta'lmini joriy qilish.... 56  
**Eshchanova Gavhar Otajonovna, Abdullayeva Sanobar Ibadullayevna.** Boshlang'ich sinf o'qish va matematika darslarida interfaol usullardan foydalanishga kompetensiyaviy yondashuv..... 61  
**Qurbanov Maqsudali Sobirali o'g'li.** Optika bo'limi bo'yicha laboratoriya eksperimentlarining hozirgi holatini tahlil qilish ..... 64  
**Zaripova Gulbahor Kamilovna.** The importance of the class teacher in the education of schoolchildren as perfect personalities..... 69  
**To'xtasin Rajabov Ibodovich.** Musiqa darsida o'zbek xalq folklor turkimiga kiruvchi buxoro bolalar folklor qo'shiqlarini o'rgatish dolzarb metodik muammo sifatida ..... 78  
**Nigmatova Mavjuda Maximovna.** Oilada tolerantlikni shakllantirish yo'llari..... 83  
**Abdumannatov Abdumajit Matayevich.** Alisher Navoiy ma'naviy merosining yoshlar tarbiyasidagi o'rni..... 87  
**Abdrimov Inoyatbek Axmedovich,** Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashini rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari ..... 91  
**Hakimova Nargiza Supxonovna.** Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida o'quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish yo'llari ..... 96  
**Sidiqova Dilora Shavkatovna.** Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarning mutaxassislik fanlaridan kasbiy kompetentligini takomillashtirishning metodik imkoniyatlari ..... 100  
**Mamadjanova Nozimaxon Azimxodjayevna.** O'quvchilarda kommunikativlikni rivojlantirishda didaktik o'yinlar ..... 105  
**Temirova Matluba Karim qizi.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik tarbiyani rivojlantirishda sharq mutafakkirlari ma'naviy merosining o'rni..... 109

## BOSHLANG‘ICH TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARING MUTAXASSISLIK FANLARIDAN KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK IMKONIYATLARI

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada bosholang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining mutaxassislik fanlaridan kasbiy kompetentligini takomillashtirishning metodik imkoniyatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bosholang‘ich ta’lim yo‘nalishida masofaviy ta’lim sharoitida talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishning metodik tizimini yoritilgan.

*Kalit so‘zlar:* kasbiy kompetentlik, ta’lim sohasi, mutaxassislik fanlari, amaliy ko‘nikmalar, pedagogik texnologiyalar, masofaviy ta’lim, masofali ta’lim resurslari, elektron o‘quv-metodik majmualar, metodik ko‘rsatmalar.

### МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*Аннотация.* В данной статье представлена информация о методических возможностях повышения профессиональной компетентности учащихся начальных классов. Выделена методическая система повышения профессиональной компетентности обучающихся при дистанционном обучении в сфере начального образования.

*Ключевые слова:* профессиональная компетентность, сфера образования, профильные предметы, практические навыки, педагогические технологии, дистанционное образование, дистанционные образовательные ресурсы, электронные учебно-методические комплексы, методические указания.

### METHODOLOGICAL POSSIBILITIES OF IMPROVING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF STUDENTS OF PRIMARY EDUCATION

*Abstract:* this article provides information on the methodical possibilities of improving the professional competence of students of primary education. The methodical system of improving the professional competence of students in distance education in the field of primary education is highlighted.

*Key words:* professional competence, field of education, specialized subjects, practical skills, pedagogical technologies, distance education, distance education resources, electronic educational-methodical complexes, methodical instructions.

**Kirish.** Dunyoning YUNESKO, YUNISEF kabi halqaro tashkilotlari va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha yangi ta’lim konsepsiyasida “Ta’lim-taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlarga yetkazuvchi muhim faoliyat” sifatida e’tirof etilib, ta’lim sohasida malakali kadrlarni tayyorlash, ta’lim berishda talabalarining yuqori darajadagi malaka hamda qobiliyatlarini rivojlantirish talab qilinadi.

Metodik tizimning takomillashtirilishi bir tomondan ta’lim sohasi va jamiyatni ijtimoiy rivojlantirishga hissa qo‘ssha, ikkinchi tomondan tez o‘zgaradigan dunyoda uzlusiz ta’lim tizimida bosholang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorlashning mazmunan to‘ldirilishi yangilanishi, zamonaviy bilimlar bilan doimiy boyitilib borilishiga erishiladi. Ilmiy izlanish olib borish davomida o‘rganilgan adabiyotlardan ma’lumki, N.Kerimbayev fizika o‘qitish metodik tizimini rivojlantirish

tendensiyalarini oshib berib, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash, kasbiy faoliyatda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodik tizimning komponenti ekanligini ochib bergen bo'lsa, M.Abdurazzoqov ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak mutaxassislik o'qituvchisini metodik tayyorlashni takomillashtirishni tadqiq etib, web-texnologiyalarini qo'llashni tavsiya etadi, Susan Gasson metodik tizimni rivojlantirishda axborot texnologiyalarining rolini tadqiq etgan.

**Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar.** Zamon to'xtovsiz rivojlanar ekan, fan o'qituvchisi tomonidan ishlab chiqilib, ta'lim amaliyotida qo'llanilayotgan ta'limning metodik tizimini ham uzluksiz takomillashtirib borishimizga to'g'ri keladi. Pedagogik va axborot texnologiyalarini integratsiyasida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning metodik tizimini takomillashtirish uchun metodik tizimni tashkil etuvchi har bir elementini takomillashtirib borish uchun quyidagilar zarur::

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida masofaviy ta'lim sharoitida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning metodik tizimini takomillashtirish uchun quyidagilar muhim hisoblanadi:

maqsadni takomillashtirish – ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni to'g'ri qo'yishga, mutaxassislik bilimlarni o'rgatish va pedagogik ongni rivojlantirib borishga o'rgatish;

metodni takomillashtirish – pedagogik va AT, ularning integratsiyasi imkoniyatlaridan foydalanish, mavzuga mos P va AT ni tanlash, qo'llash, kirib kelayotgan innovatsiyalardan foydalanishni rivojlantirishni o'rgatish;

vositani takomillashtirish – diqqatni jalb etuvchi ko'rgazmali Geografiya o'qitish metodikasini yaratish, undan foydalanish, P va AT foydalanishni shartli refleksga aylantirib borish ko'nikmalarini shakllantirish;

nazoratni takomillashtirish – qo'yilgan maqsadni natija bilan solishtirish, teng kuchliligiga erishish, pedagogning o'z faoliyati va talabasi faoliyatini tashxislash, nazorat mezonlarini ishlab chiqish, adolatli baholashga erishishga o'rgatish;

shaklni takomillashtirish – individual, guruhli frontal va masofali shakllarda ham "nimani qachon o'rgatishni" P va ATlaridan foydalanib loyihalab olishga o'rgatib borish va hokazo.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'quv dasturlarida kasbiy-amaliy ko'nikmalarini tasniflashda tasnif so'zining mazmun-mohiyatini ifodalashni talab etadi. Tasnif (arab. - saralash, tartibga solish), klassifikatsiya - ilm yoki inson faoliyatining biror sohasiga oid o'zaro bir xil tushunchalar sistemasini anglatadi. Tasnif har bir fanga xos muhim mantiqiy amal bo'lib, uning vositasida shu fan doirasida to'plangan bilimlar qat'iy tartibga solinadi. Fanni o'rganishda bunday tasnif qulaylik tug'diradi. Tasnif natijasida fanda muxim ahamiyat kasb etuvchi jadvallar, chizmalar, grafiklar, kodekslar vujudga keladi. Tasnifda mantiqdagi bo'lish qoidalariga qat'iy rioya qilish lozim. Tasniflash esa har bir tushunchaning tafakkur tizimidagi o'rnnini aniqlab beradi. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'quv dasturlarida kasbiy-amaliy ko'nikmalarini tasniflash quyidagicha amalga oshirildi:

ta'lim yo'nalishida umumkasbiy, ixtisoslik va qo'shimcha fanlar blokida o'qitiladigan fanlarni aniqlash;

fanlar bo'yicha talabalarning ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar bo'yicha kasbiy-amaliy ko'nikmalarini tizimlashtirish;

ona tilining strukturasi va sistemasini farqlay olish va o'rgata olish;

matematik hisoblashlardagi xatolar ustida ishslash, o'quvchilarning hisoblash ko'niklarini shakllantirish;

matematik amallarni qo'llash va o'rgatish;

shaxsning bilish jarayonlari, hissiy-irodaviy sohasi, individual xususiyatlari bilish va amaliy faoliyatda qo'llash;

ona tili darslarida ta'lim va tarbiya birligi tamoyiliga amal qilish va loyihalashtirish;

pedagogik jarayonda har qanday nizolarning oldini olish, tanlangan metod va texnologiyalarini joriy qilishda muhitni, vaziyatni baholay olish;

tabiatshunoslik darslarini integratsiyalash, atrof-muhit muhofazasiga oid tushunchalar bilan qurollantirish;

texnologiya jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantira olish;

boshlang'ich ta'lim tizimida o'qitish va tarbiyalashning innovatsion metod va texnologiyalarini qo'llash;

innovatsion pedagogik tajribalarni o'zlashtirish, amalga oshirish, baholash va takomillashtirish; jamoa ijodiy faoliyatni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarni bilish.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'quv dasturlarida kasbiy-amaliy ko'nikmalarini tasniflashni har birini alohida tahlil qilishni lozim.

Ta'lim yo'nalishida umumkasbiy, ixtisoslik va qo'shimcha fanlar blokida o'qitiladigan fanlarni aniqlash tasnifi uchun boshlang'ich ta'lim yo'nalishi tanlab olindi. Bunda umumkasbiy, ixtisoslik va qo'shimcha fanlar blokida o'qitiladigan fanlar bosqichlar bo'yicha keltirilgan.

Oliy ta'lim muassasalarga shunday bozor omillari ta'sir ko'rsatadi, birinchidan, muassasa va tashkilotlar tomonidan bitiruvchi mutaxassislariga talab shakllansa, ikkinchi tomondan, abituriyentlarning oliy o'quv yurtiga kirish uchun shart-sharoitlari shakllanadi. Shunga ko'ra, o'z navbatida, o'quv yurti kasbiy sohada zaruriy tayyorgarlikka ega bitiruvchilar bilan ta'minlash bo'yicha mehnat bozoriga va iste'molchilarga ta'sir ko'rsatadi. Bunga bog'liq holda mutaxassislariga talab doimo o'sib boradi, oliy ta'lim muassasalarga o'qishga kiruvchilarga talabni oshirishga majbur.

ta'lim sifatini oshirish quyidagi maqsadlarga erishishni nazarda tutadi:

xalqaro standartlar bazasida sifat tizimi asosida mutaxassislar tayyorlash darajasini oshirish; innovatsion axborot mahsulotlarini ishlab chiqish;

yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy usullarini joriy etish asosida innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish;

ta'lim sifati va uzlusizligini ta'minlash;

pedagogik kadrlarni kasbiy darjasini va malakasini doimiy ravishda oshirib borish;

yangi texnologiyalarda foydalanish asosida o'quv jarayonini uzlusiz takomillashtirib borish; kasbiy masalalarni yechishga talabalarni ijodiy yondashadigan va mas'uliyatlari qilib tarbiyalash.

M.Larionov OTM o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyati tarkibining funksional modelini uchta nuqtayi nazar bo'yicha tasniflaydi:

mustaqil pedagogik faoliyat;

ilmiy-pedagogik faoliyat;

ilmiy-tadqiqot faoliyati.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy-amaliy ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi jarayon bosqichlarida amalga oshiriladi.

Kasbiy kompetentlik tizimning mazmunini takomillashtirish uchun mutaxassislik yo'nalishi talabalariga:

o'r ganilgan obyekt va hodisalarni modellashtirish, loyihalashtirish va fan mavzularini metodik tizim sifatida o'rgatib borish;

mutaxassislikni o'qitishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar, metodlar, vositalar va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirib borish;

mutaxassislikni o'qitishda fanlararo bog'liqlik, metapredmetli yondashuvdan foydalanishni shakllantirish;

pdflar, elektron ta'lim resurslari va masofali ta'lim muhitini hosil qilish va undan foydalanishni o'rgatish;

talabalarni innovatsion, loyihalovchilik, ijodkorlik va tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirishga o'rgatib borish;

mutaxassislik yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlarning ko'lamini kengaytirish maqsadida talabalarni ilmiy tadqiqot ishiga yo'naltirib borishni zarur.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida masofaviy ta'lim sharoitida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish uchun mutaxassislik yo'nalishi talabalariga:

mutaxassislik fanini o'qitishda P va AT, ularning integratsiyasi imkoniyatlaridan foydalanishni o'rgatib borish;

interfaol metodlarni tahlil va tanlash tamoyilidan foydalanib mutaxassislik mavzusiga moslab qo'llashni o'rgatish;

mutaxassislik mavzularini o'qitishda foydalaniladigan Geografiya o'qitish metodikasini yaratish va foydalanishga o'rgatish;

o'qitishda kirib kelayotgan innovatsiyalarni va innovatsion metodlarni o'z pedagogik faoliyatiga olib kirishga o'rgatish;

P va ATlari, ularning integrasiyasidan foydalanishni shartli refleksga aylantirib borish.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalariga o‘qitiladigan fanlardan ta’limning tashkiliy shakllari auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlardan tashkil topgan bo‘lib, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar: mustaqil ta’lim, turli fan to‘garak ishlari ma‘naviy-ma‘rifiy, turli bahs-munozara kechalari, soha fidoyilari bilan uchrashuv va hokazolar bo‘lishini tushuntirib yetkazish lozim.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarini ta’limning tashkiliy shakllarining samaradorligiga erishish uchun oldindan loyihalashtirish zarur bo‘ladi. Ta’limiy loyihalar o‘qituvchi tomonidan tayyorlanadigan dars ishlanmalari, texnologik xaritalar, o‘quv-uslubiy majmualarda o‘z aksini topadi.

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi dars jarayonining har bir bosqichida o‘qituvchi va talabalar faoliyatini vaqt me’yorlari bo‘yicha loyihalashtirishni belgilab olish uchun ishlatiladi. Shundan kelib chiqib, metodik tizimning tashkiliy shaklini takomillashtirish ushun: mutaxassislik fanining boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan darslarini tashkil etishga;

mashg‘ulotlarni konferensiya, bahs-munozara, seminarlar shaklida, mashg‘ulotda masofali ta’lim elementlaridan, H5P platformasidan foydalanib tashkil etish uslubiyotini shakllantirishga;

ma’ruza mashg‘ulotlarini muammoli ma’ruza, vizual ma’ruza, ma’ruza-maslahat, ma’ruza-matbuot, konferensiya, ma’ruza-tadqiqot ko‘rinishlarida tashkil etishga;

ta’lim shakllarini loyihalashda ijodiy yondashish, kreativlik, turli qobiliyatlar, pedagogik mahoratni va hokazolarni namoyon etish kabilarni o‘rgatib borish zarur.

Metodik tizimning tarkibiy elementlaridan biri ta’lim vositalari bo‘lib, ta’lim jarayonida o‘quv materiallarini ko‘rgazmali taqdim etish, o‘rganish, shuningdek, ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi vositalar-ta’lim vositalaridir. Ta’lim vositalaridan o‘rinli foydalanish natijasida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quv materiallarini tezda o‘rganishi, xotirada uzoq vaqt saqlanishi, tushunarli bo‘lishi, fan mavzularini o‘rganishda motivatsiyaning vujudga kelishi, qiziqishning ortishiga olib keladi.

Ta’lim jarayonida foydalaniladigan ta’lim vositalarini takomillashtirish uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarga:

ta’limning texnik vositalari: zamonaviy kompyuterlar, internet, elektron doska, multimedia vositalari, asosiy va qo‘srimcha qurilmalari mavjud kompyuter sinflari, Wi-Fi aloqasi mavjud bo‘lgan elektron o‘quv zallaridan foydalanishni yo‘lga qo‘yish;

ta’limning yordamchi vositalari: turli modellar, masofali ta’lim resurslari yozilgan optik disklar, o‘qitishda qo‘llaniladigan video-filmlar, flesh xotira, ko‘rgazmali vositalar, grafiklar diagrammalar, chizma, sxemalardan foydalanib borish;

ta’limning didaktik vositalari: boshqarilish imkoniyatiga ega bo‘lgan o‘quv-metodik qo‘llanmalar, o‘rgatuvchi, nazorat qiluvchi masofali ta’lim resurslari, elektron o‘quv-metodik majmualar, metodik ko‘rsatmalar va elektron o‘quv modullari;

Metodik tizimda nazorat qilish va baholash ta’lim natijasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Nazorat va baholashning test, yozma va og‘zaki turlaridan foydalaniladi.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining tayyorlashda metodik tizimni zamon talablari darajasida takomillashtirib borishni o‘rgatib, metodik tizim elementlari orasidagi uzviylik va uzlusizlikning ta’milanishiga, natijada har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy faoliyatini amalga oshirish jarayonida o‘z metodik tizimini yaratishiga erishishini ta’minalash kerak.

**Xulosa** qilib aytadigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentlikning takomillashtirishning assosini quyidagilar tashkil etadi:

talabalar metodik tizimni o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha bir mavzu, bir fan misolida tushunib etishiga erishish;

talabalar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi sifatida o‘qituvchini tayyorlashning maqsadlari, ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarga erishishlarini ta’minalashga o‘rgatib borish;

talabani o‘z mutaxassisligidan individual metodik tizimni yarata olishlariga erishish, mustaqil ravishda ta’limning shakliga mos maqsadini belgilash, mazmunni ajratib olib, metod va vositalarni tahlil qilib tanlab olib, darsni tashkil etish, natijani baholash jarayonida o‘z-o‘zini va o‘quvchilarini adolatli baholash, mavjud xatoliklarni tezda to‘g‘rilashga o‘rgatish;

ta’limni tashkil etish tamoyillari (ilmiylik, tizimlilik, tushunarilik, ko‘rgazmalilik va hokazo)ga asoslanib darslarni tashkil etish, tadqiqotchilik, loyihalashtirish, integratsiyalash,

104

innovatsion faoliyatni tashkil etishga o'rgatib borib, pedagogik mahoratning eng cho'qqisiga erishishga yo'naltirish;

fanning metodik ta'minotini o'quv dasturi va davlat ta'lim standartlariga moslab, muntazam yangilab borish, talabalarni novator va lider o'qituvchilar safidan joy olishga o'rgatib borish;

bo'lajak mutaxassislik o'qituvchisining ma'lum vaqt o'tishi bilan tajribalarini rivojlantirib, pedagogik kompetentlikning yuqori chegarasi bo'lgan pedagogik mahoratga erishish va o'z karerasini shakllantirish, yetuklik pillapoyalaridan ko'tarilib borishni uqtirib, ularni zamon talabiga mos, malakali kadrlar bo'lishiga erishish lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Susan Gasson. The role of methodologies in it-related organisational change Proceedings of BSS Sresialist Grour on IS Methodologies, 3 rd Annual Sonferense, The Application of Methodologies in Industrial and Business Change, North East Wales Institute, Wrexham, UK–September. <http://www.sis.drexel.edu/fasulty/sgasson/vita/SG-BSS-95.pdf>
2. Kayumova N.A. Pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasida informatika o'qituvchisini kasbiy kompetentligini shakllantirish. "Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasida axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo'llashning hozirgi zamon masalalari" Respublika ilmiy-texnik anjumani.1-qism.-Nukus, 2015.-453-456-b.
3. Kayumova N.A. O'qitishning axborot-ta'lim tizimi sharoiti va unda axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasi o'qituvchilarini tayyorlash. – T.: "Fan va texnologiya",2015.-192-b.
4. Kayumova N.A.Oliy ta'lim muassasalari talabalarini ilmiy tadqiqot ishiga yo'naltirish muammolari va yechimlari.// "Zamonaviy ta'lim" jurnali, 2018,11-son.-4-10-b.
5. <http://www.H5P.org>.
6. <http://vikipedia.uz>